

# **Andijon davlat tibbiyot instituti, biologik fizika, informatika, tibbiy texnika va yangi texnologiyalar kafedrası**



**Kafedra mudiri dotsent**

**GULAMOV SHUXRAT  
ABDUMUXTAROVICH**

**Tel: +99893-445-48-09**

**e-mail: [shaqfiz@umail.uz](mailto:shaqfiz@umail.uz)**

## **BIOLOGIK FIZIKA, INFORMATIKA, TIBBIY TEXNIKA VA YANGI TEXNOLOGIYALAR KAFEDRASII TARIXI VA FAOLIYATI**

Fizika kafedrası Andijon Davlat tibbiyot institutida 1955-yilda birinchilardan bo'lib ochilgan 7 ta nazariy kafedralardan biri sifatida tashkil topgan. Kafedraning qaldirg'och pedagog-o'qituvchilari sifatida Said Rumi, X.I Mamajonov, fizika-matematika fanlar nomzodi I.A. Iminov kabilar faoliyat ko'rsatganlar.

1970-1971 o'quv yiliga qadar fizika kafedrası, so'ngra fizika va oliy matematika kafedrası deb atalgan.

Institutda kafedrani tashkil qilishda Sog'liqni saqlash vazirligidan vakil etib tayinlangan Said Rumi kafedraning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Kafedrani tashkil etishda dotsent H.I.Mamajonov xam katta hissa qo'shib, uni 17 yil boshqargan.

1971-1977-yillarda kafedraga texnika fanlari nomzodi N.S.Toshlonov, 1978-1983, 1995-2000-yillarda fizika-matematika fanlari nomzodi H.YA.Supichaqov, 1983-1995 yillarda fizika-matematika fanlari nomzodi D.A.Axmedovlar mudirlik qilganlar. Ularning sa'yi harakati bilan kafedra laborator uskunlari bilan boyitildi. 2000-yildan 2006-yilgacha fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent B. Mamadaliev mudirlik qilgan. Ushbu davrda B. Mamadaliev tomonidan biofizika laboratoriyasini jixozlash, yangi laboratariya ishlarini yaratish va kompyuter xonalarini tashkil qilish bo'yicha salmoqli ishlar bajarildi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda hamda kafedra tashkil etilgan davrdan boshlab o'quv va ilmiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi pffessor-

o'qituvchilar o'z xissalarini qo'shganlar: fizika-matematika fanlari nomzodi M.A.Azizov, fizika-matematika fanlari nomzodi I.A.Iminov-(1956 y) , N.N.CHikovitix, I.B.Boymirzaevlar.

2008-yildan boshlab kafedrani fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent SH.A.G`ulamov boshqarib kelmoqda. SH.A.Gulamov Toshkent davlat universitetining fizika fakultetini, yarim o'tkazgichlar va dielektriklar ixtisosligi bo'yicha 1975-yili bitirgan. Ko'p qatlamli yarim o'tkazgichli tuzilmalardagi plazma xodisalarini kuchli magnit maydon ta'sirida o'rganan. Kafedrada, odam organizmida xosil bo'ladigan elektr signallarini qayd qilish va ular asosida tashxis qo'yish, tolali o'simliklarning fizik xossalarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'quv uslubiy ishlar sohasida, bilim berishning yangi pedagogik texnologiyalarini yaratishda, faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Kafedrada katta pedogogik mahoratga ega bo'lgan katta o'qituvchilar, M.Z.Mamatqulova, X.O'.Xudoyberdieva, M.E.Xomidov, pedagoglardan E.G.Naimov, D.T.Komilova, E.A.Gaipov, M.M.Rustamov, G.M.Muminova, G.A.Abduraxmonova, E.M.YUldashev, laboratoriya mudiri D.D.Jo'raev, laborantlar - YO.Saitqulova, G.Xolboeva, M.Abdullaeva va D.Iminovalar faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Kafedrada Biofizika, Tibbiy informatika, Biomeditsina injeniringi fan yo'nalishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladi. Biofizika ma'ruza mashg'ulotlarini dotsent SH.A.Gulamov va katta o'qituvchi M.Z.Mamatqulova, Tibbiy informatika fani bo'yicha katta o'qituvchilar X.U.Xudoberdieva va M.E.Xomidovlar olib boradilar. Kafedrada Biofizika faniga oid uchta o'quv labarotoriya va bir preparat xonalari mavjud bo'lib, ularda 20ta laboratoriya ishlarini frontal usulda o'tkazish imkoniyatlari tashkil qilingan.

Informatika va axborot texnologiyalar fanidan talabalarning bilim va ko'nikmalarini, kompyuter savodxonlgini oshirish maqsadida 3 ta kompyuter sinfi hamda test markazida joylashgan va Internet tarmog'iga ulangan 60 ta zamonoviy Pentium-4 rusumli kompyuterlardan foydalaniladi.

Biomeditsina injeniringi fanini o'zlashtirishda talabalar kafedrada mavjud tibbiy apparatlardan, institutning amaliy ko'nikmalar laboratoriyasidan va Institut klinikasida ishlab turgan zamonaviy diagnostik va davolash uskunalaridan samarali foydalanadilar.

Kafedrada har bir fan, yangi pedogogik va innovatsion texnologiyalar asosida olib boriladi. Dotsent SH.A.Gulamov tomonidan yaratilgan "Talaba- assistent va Talaba-taqrizchi" deb nomlangan yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilayotgan laborator mashg'ulotlari katta samara bermoqda. Bugungi kunda bu yangi o'qitish usuli Respublikamizning ko'pchilik ta'lim muassasalariga, videofilmlar ko'inishida havola etilib, undan foydalanish tavsiya etilgan.

Kafedra xodimlari tomonidan oxirgi 3 yil davomida 6 ta o'quv, 111 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ulardan 1-va 2-bosqich talabalari foydalanib kelmoqdalar.

## KAFEDRA XODIMLARI XAQIDA FOTOMA'LUMOT



**Dotsent Gulamov Shuxrat  
Abdumuxtarovich -kafedra  
mudiri**



**Katta o'qituvchi  
Mamatkulova Manzura  
Zuxritdinovna-xotin qizlar  
ishlari mas'uli**



**Katta o'qituvchi  
Xudoyberdiyeva Xusnobod  
O'rmonovna – o'quv ishlari  
bo'yicha mas'ul**



**Katta o'qituvchi Xomidov  
Mavlrbek Ergashboyevich –  
ilmiy ishlar bo'yicha mas'ul**



**O'qituvchi Komilova Dilobar  
Turg'unboyevna – ma'naviy-  
ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul**



**O'qituvchi Erkin Gafarovich –  
kasaba yushmasi ishlari  
bo'yicha mas'ul**



**O'qituvchi Gaipov Elmurod  
Abdurasulovich – texnik  
xavfsizligi bo'yicha mas'ul**



**O'qituvchi Rustamov  
Mirodil Muxammadjonovich  
– sayt bo'yicha mas'ul**



**O'qituvchi Muminova  
Gulmira Iarufjonovna –fan  
olimpiadalari bo'ichach mas'ul**



**O'qituvchi Eldorbek  
Mirodilovich**



**O'qituvchi Abduraxmonova  
Gulrux Abdumutalibovna**

Kafedrada ilmiy-tadqiqot ishlariga ham katta e'tibor beriladi. Jumladan, kafedra xodimlari Tirik organizmga tashqi fizik ta'sirlar, tolali o'simliklarning fizik xossalarini o'rganish, organizmda kechadigan biofizik jarayonlarni kompyuter modellashtirish va dasturlash, yurak-ishemik kasalliklarini noinvaziv usul bilan diagnostika qilish borasida ilmiy izlanishlar olib boradilar. Olingan ilmiy natijalar 34 ta xorijiy va Respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan. Ilmiy natijalar halqoro, Respublika va maxalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muxokama etilib, oxirgi uch yilnig o'zida 134 ta ilmiy tezisdan chop etildi. Dasturiy ta'minot bo'yicha 5 ta patent olindi.

Kafedrada iqtidorli talabalarni izlab topish, ularni boshlang'ich ilmiy ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida "Sinergetika" ilmiy maktabi ochilgan. Ushbu maktabni tashkil qilishda kafedra katta o'qituvchisi Boxodirjon Asqrov salmoqli xissa qo'shgan.

"Sinergetika" ilmiy maktabining yana bir maqsadi va vazifasi magistratura, bakalavriaturalarning iqtidorli talabalari, akademik litsey va kollejlarda iqtidorli o'quvchilari bilan ham ishlash, ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish, ularning ilmiy izlanishlariga ko'maklashishdir. Ushbu maktabning faol qatnashchilaridan 11 nafari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi va 16 nafari Ibn Sino nomli davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldilar.